



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 139-143 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### RAQAMLI SUG'URTA MAHSULOTLARI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI



**Ilmiy rahbar dotsent, A.Botirov**

**BMA magistranti F.Z.Sattorov**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar sharoitida sug'urta bozorini rivojlantirishning dolzarb masalalari o'rganiladi. Maqolada raqamli sug'urta tahlili asosida sug'urtalanuvchilarni himoya qilish sifatini oshirish va raqamli iqtisodiyotda sug'urta biznesini rivojlantirish maqsadida sug'urta sohasiga raqamli texnologiyalarni yanada joriy etish muhimligi ko'rsatilgan. O'rghanish natijasida raqamli sug'urta mahsulotlari kompaniyalarida qo'llash orqali erishiladigan yutuq va kamchiliklar tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** raqamli sug'urta mahsulotlari, sug'urta bozori, sug'urta biznesi, sug'urta mukofoti, sug'urta to'lovi, sug'urta summasi.

#### **Kirish.**

Sug'urta bozorini o'zgartirishda moliya nazariyasini va sug'urta ta'liming o'rni hamda ta'lim texnologiyalarini tizimli yangilash zarurligi ta'riflandi. Sug'urta bozorida raqobatning kuchayishi va axborot kanallarining rivojlanishi, iste'molchilarning xulq-atvoridagi o'zgarishlar sug'urta kompaniyalarini biznes yuritishning mavjud texnologik tamoyillarini qayta ko'rib chiqishga undayapti. Aynan innovatsion yondashuvda sug'urta biznesining kelajagi yotadi, shuning uchun sug'urta sohasida yangi inqilobiy blokcheyn texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmonida[6] respublikamizda raqamlashtirishning ustuvor vazifalarini belgilab berdi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish bilan birga jahonda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy richaglarni tadqiq etish va joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Adabiyotlar tahlili**

Mamlakat iqtisodiyotida raqamli sug'urta mahsulotlari haqida xorijiy olimlardan IO. T. Ахвledиани, Н.Г.Адамчук, G.Gauer, G.Parker, P.Vinston, M.Keysi, K.Shvab, A.Agrawal, J.Gans, A.Goldfarb [1-5] va boshqalar o'z tadqiqotlarini olib borishgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlardan X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G.Kenjayev, N.A.Mavrulova, I.Abduraxmonov va boshqalar [6-9] raqamli sug'urta mahsulotlarining mohiyatini tadqiq etib kelmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolaning ilmiy tarkibini izohlab berishda statistik va tanlanma kuzatuv usulidan foydalanildi. Ushbu usullar orqali iqtisodiyotni samarali rivojlantirishda, xorijiy tajribalarni chuqur tahlil qilgan holda o'sib borayotgan raqamli sug'urta yanada ko'p yaratish va iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnoligiyalardan samarali foydalanish yo'li bilan qondirish imkoniyatlari ko'rsatib berildi.

### **Tahlil va natijalar**

Jahonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha turli strategiyalar amalga oshirilmoqda. Ushbu tajribalardan foydalanish milliy iqtisodiyotni samarali rivojlantirishda imkon beradi.

Insonlar uchun raqamli sug'urta hali unchalik darajada tanish bo'limgan soha hisoblanib, bu sohada tajribali foydalanuvchilar soni ham yetarli darajada emas. Hozirgi kunda ushbu soha iste'molchilari sifatida faqatgina turli yangiliklarni sinab ko'rish maqsadida bo'lgan ba'zi bir innovatsiyalar hisoblanadi. Shuning uchun raqamli sug'urta maxsulotlarini istiqbollarini oshirish uchun hamkorlik munosabatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq, jumladan, raqamli tibbiyotni iste'molchilarga yetkazishning hamkorlarning muayyan mahsulotlariga integratsiya qilish orqali targ'ib etish muhimdir. Keyinchalik esa mijoz yangi mahsulotni o'zi uchun sinovdan o'tkazgandan so'ng va uni yoqtirganidan so'ng, bunday xizmatni uning o'zi mustaqil holda to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalovchidan sotib olish ehtimoli ko'proq bo'ladi. Ya'ni bugungi kunda asosiy maqsad dastlabki tajriba bo'yicha to'siqni olib tashlashdir.

Elektron sug'urta sug'urta xizmatlarining mavjudligini sezilarli darajada oshiradi va sug'urta shartnomalarini tuzish va ularga xizmat ko'rsatish va zararlarni qoplash xarajatlarini kamaytiradi, sug'urta xizmatlari iste'molchilari va sug'urtalovchilar uchun printsipli jihatdan yangi imkoniyatlar ochadi. Shu bilan birga, sug'urta biznesini avtomatlashtirish ishlab chiqilgan biznes-jarayonlarni firibgarlik va suiste'mollikdan himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu munosabat bilan elektron sug'urtani rivojlantirish ko'p jihatdan sug'urta bozorida nohaq amaliyotlarning oldini olishga qaratilgan qonunchilik choralarini qabul qilish bilan bog'liqdir.

Sug'urta axborot va texnologik xatarlarni minimallashtirishga imkon beradi, sug'urtalanuvchilarining manfaatlarini moliyaviy texnologiyalar xavfidan himoya qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish sharoitida sug'urta risklarini boshqarish mexanizmlari va da'volarni elektron ko'rib chiqish tartib-taomillarining yetarli darajada rivojlanmaganligi moliyaviy texnologiyalar sohasida belgilangan vazifalarni to'liq amalga oshirish imkonini bermayapti. Raqamli innovatsiyalar va texnologiyalar sug'urta munosabatlari ishtirokchilari o'rtasidagi muhim jarayonlarni o'zgartirishga va bozor ishtirokchilarining ishonchsizlik darajasini pasaytirishga yordam beradi, bu esa blokcheyn texnologiyasi birinchi navbatda qaratilgan. Blokcheyn yoki IT-texnologiyalari orqali tarqatilgan ma'lumotlar ma'lumotlarni almashish va xavfsizlik uchun ma'lumotni o'zgartirishga imkon beruvchi har qanday faoliyatni qo'lga kiritish salohiyati tufayli moliyaviy xizmatlar sohasida mashhur bo'ldi. [Н.Г.Адамчук]

2023 yil 31 dekabr holatiga faoliyat yuritayotgan umumiy sug'urta tashkilotlari soni 43 taga yetdi, ulardan 35 tasi umumiy sug'urta tarmog'ida va 8 tasi hayot sug'urtasi tarmog'ida faoliyat olib bormoqda. Yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston sug'urta bozorida amalga oshirilgan sug'urta to'lovlaringin yig'ilgan sug'urta mukofotlariga nisbatan ulushi yetakchi o'rinda turgan sug'urta kompaniyalar "Apex Insurance" AJ, "O'ZBEKINVEST" EISK AJ va "KAFOLAT SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ sug'urta kompaniyalari yuqori uchatalikni egallab turibdi.

### *1-jadval*

#### *O'zbekiston sug'urta bozorida amalga oshirilgan sug'urta to'lovlaringin yig'ilgan sug'urta mukofotlariga nisbatan ulushi<sup>1</sup>*

Yillar	Sug'urta mukofotlari (mlrd.so'm)	Sug'urta to'lovlari (mlrd.so'm)	Sug'urta to'lovlaringin sug'urta mukofotlariga nisbatan ulushi (%da)	Oldingi yilga nisbatan o'sish (+) yoki kamayish (-) (%da)
2019	2 313,9	813,2	35,1	7,0
2020	1 879,3	419,6	22,3	12,8
2021	2 995,7	612,7	20,5	1,8
2022	3 527,1	1 087,6	30,8	-10,3
2023	5 786,2	1 568,5	27,1	3,7

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, yillar o'tgan sari sug'urta to'lovlaringin sug'urta mukofotlariga nisbatan o'sib borganligini ko'rishimiz mumkin. 2023 yilga kelib esa 2022 yilga nisbatan sug'urta mukofotlarining 30,8%i sug'urta to'lovlari to'lab berilgan. O'tgan yilga nisbatan esa 3,7%ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. 2020 yildagi COVID-19 pandemiyasi oqibatlarida 2021 yilda sug'ura mukofotlari sug'urta to'lov larga nisbatan 10,3%ga kamayganini ko'rishimiz mumkin.

*Sug'urta mahsulotlarini sotish tizimining shakllanishi quyidagi asosiy xususiyatlar asosida aniqlanadi*

ushbu tizim orqali sug'urta mahsulotini sotish turi (aktiv yoki passiv)

sug'urta mahsulotlarini sotish bosqichida va sug'urta shartnomasidan o'tish vaqtida qo'shimcha bat afsil xizmatlar

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.

### **1-rasm. Sug'urta mahsulotlarini sotish tizimining shakllanishi.**

Sug'urta mahsulotlarini sotish tizimining shakllanishi quyidagi asosiy xususiyatlar asosida maxsulotlar ko'proq sotilishi imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlarining qancha qismi yoki necha foizi global Internet tarmog'i orqali sotilgan sug'urta polislari bo'yicha kelib tushganligi to'g'risida statistik ma'lumotlar mavjud emas. Sug'urta sohasini raqamlashtirish maqsadida elektron platforma yaratish, yirik integratsiyalashgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish uchun katta miqdorda investitsiyaviy mablag'larga ehtiyoj mavjud. Shuningdek, barcha sug'urta operatsiyalarini raqamlashtirish uchun dasturiy mahsulotlar tizimi yetarli emas. Qolaversa, sug'urta kompaniyalarining mavjud kompyuterlari, server qurilmalari katta ma'lumotlar bazasini xotirasida saqlash quvvatiga ega emas. Sug'urtaning ixtiyoriy va majburiy turlari, shu jumladan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha elektron polislarni sotish va rasmiylashtirish ishlarini sug'urta kompaniyalarining global Internet tarmog'idagi rasmiy veb-sayti orqali amalga oshirish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

#### **Xulosa va takliflar:**

Sug'urta faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, mijozlarga elektron sug'urta xizmatlarini ko'rsatish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Sug'urta kompaniyalari raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun zamonaviy texnologiyalar asosida raqamli platformalardan samarali foydalanish talab etiladi;

sug'urta kompaniyalarining ish faoliyati xususiyatidan kelib chiqib, zamonaviy dasturiy mahsulotlar yaratish, sug'urta faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish;

sug'urta xizmatlarini global Internet tarmog'i orqali xarid qilish bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarga imkoniyat va shartsharoitlar yaratish hamda sug'urta qildiruvchilarga tegishli ma'lumotlarning ishonchli saqlanishi;

ixtiyoriy va majburiy sug'urta turlari, shu jumladan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha elektron polislarni sotish va rasmiylashtirish ishlarini sug'urta tashkilotlarining global Internet tarmog'idagi rasmiy veb-sayti orqali amalga oshirish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

**1.** Ю.Т.Ахвledиани. Трансформация страхового рынка в условиях цифровизации. // Научная электронная библиотека «КиберЛенинка», 2021, DOI: <http://dx.doi.org/10.21686/2413-2829-2021-3-5-11>

**2.** Н.Г.Адамчук. Знакомьтесь, блокчейн – хит инновационного развития страхования // Страховое дело. – 2018. – № 1 (298). – С. 14–17.

3. X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G'.Kenjayev. Sug'urta ishi. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2022.
4. N.A.Mavrulova: Sug'urtada axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2022.
5. И.Х.Абдурахмонов Сугурта соҳасида рақамли технологияларни қўллаш истиқболари. // "Moliya va Bank ishi" O'zbekiston respublikasi bank-moliya akademiyasi ilmiy jurnali., 2022. 1-сон. (2022), 95-99
6. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

